



AUTIZM SINDROMLI BOLALAR

*Andijon davlat pedagogika institute
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi talabasi
Akbaraliyeva Marhaboxon Akmaljon qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258108>

Annotatsiya. Autizm grekcha so'z bo'lib "o'zi" degan ma'noni anglatadi. U reallikdan uzoqlashib, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi ko'lamini o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi.

Kalit so'zlar: autizm, bolalar, sindrom, aloqa, ehtiyoj, muloqot, atrof-muhit, Leo Kinner, o'zi kirishmaslik.

Autizm-keng ma'noda odatda aloqaga kirishmaslik "yovvoyilik", aloqadan o'zini olib qochish, o'zining dunyosida yashash ma'nosini anglatadi. Autizm grekcha so'z bo'lib "o'zi" degan ma'noni anglatadi. Autizm atamasi 40 yil oldin kirib kelgan. U Leo Kinner tomonidan fanga kiritilgan. Bu xastalikning asosiy belgisi - bolaning muloqot qilinishidagi qiyinchiligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tiyib, go'yo o'zining olamida yashayotgandek tuyuladi. Ba'zan autist bo'lgan bolalarning cheklanishlari ma'lum bir qobiliyatni kuchaytiradi.

Autizm- nerv systemsining kasalliklaridan biri hisoblanadi. Dastlabki yillarda jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasi yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi. Analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bolalarda autizm turli shakllarda, aqliy va nutqiy rivojlanishining turli darajalarida namoyon bo'ladi. U miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek, cheklangan qiziqishlar bilan tavsiflanadigan kasallik. Bu belgilarning barchasi 3 yoshdan paydo bo'la boshlaydi. Yengilroq belgilar va alomatlar qayd etilgan shunga o'xshash holatlar autizm spektirining buzilishi deb ataladi.

1943-yilda ingliz psixatori Leo Kinner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o'xshashlik belgilarini kuzatib "ilk yoshdagi autizm" atamasini kiritdi. Bu bo'yicha autizmning belgilari quyidagilardan iborat:

- Bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik.
- 3 yosh bolada nutqning rivojlanmaganligi.
- O'zi yolg'iz bo'lishni hohlashi.
- Atrof bilan aloqada bo'lishni yoqtirmasligi.
- Bola shaxs bilan muloqot jarayonida suhbatdoshining ko'ziga qaramasligi.
- Doimo bir harakatni takrorlashi.
- Mimika va imo-ishora yo'qligi.
- Bola juda kam kuladi.
- Qiziqishlari cheklangan bo'ladi.
- Faqat o'zi bilan o'zi yolg'iz o'ynaydi.
- E'tiborni faqat bir narsaga qaratadi.

Olimlar autizmli bolani 4 guruhga ajratganlar:

1-guruh: Ilk yoshdagi bolalar (2 yoshgacha bo'lgan bolalar). Ularning e'tiborini qaratish juda qiyin. Atrofdagi bo'layotgan voqealarga butunlay bee'tibor bo'lib qoladi. Ular tanlab muloqotga kirishadi.

2-guruh: Bolalar autizmi (2-11 yoshdagi bolalar). Ularda ham ilk yoshdagi autizmli bolalarda uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular 1 so'z yoki musiqani doimiy takrorlab yuradi, Ko'nikma va malakani egallashga juda qiynaladi.

3-guruh: O'smirlar autizmi (11-18 yoshdagi bolalar). Oddiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Lekin ko'proq yolg'iz qolishni hohlashadi. Ko'p holatda ruhiy tushkunlik holatida bo'ladilar.



4-guruh: Kattalar autizmi. Ularning ruhiyatida buzilishlar kuzatiladi. U butunlay o‘zga olamda yuradi.

Ba’zi austik cheklanishlari bo‘lgan odamlar bitta ma’lum sohaga (masalan rassomchilik) qaratilgan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etadilar va boshqalari esa me’yoriy “normal” holatga tushib qoladilar. Shunga qaramay, butun olamda bu xastalikka hanuzgacha da’vo topilgani yo‘q. Autizm nerv sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim olimlar fikricha, autizm ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri bo‘lib, bunda bola tevarak - atrofga nisbatan befarq, beparvo bo‘ladi. Natijada atrofdagilar bilan aloqada bo‘lmaydi. Bola o‘z-o‘zi bilan bo‘lib, o‘zicha hayajonlanib, kuyinib, nimalardandir tashvishlanib o‘z ichki dunyosida yashaydi.

Ba’zi bolalarda emotsional qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi. Ular tushkunlikka tushishlari yoki bezovta bo‘lishlari mumkin yoki ularning hulq-atvori g‘ayritabiiy bo‘ladi, buni noo‘rin yig‘lashlar va kulishlardan bilish mumkin. Ular haddan tashqari harakatchan bo‘lib, ish vaqtining o‘zida bir narsaga e’tiborini bir zungina qaratib yana boshqa narsaga chalg‘ib ketishlari mumkin yoki ular befarq yoki parishonxotir bo‘lishlari mumkin. Emotsional tushkunliklar yaqin orada bo‘lib o‘tgan jarohatlar, xafagarchiliklar yoki uzoq vaqt ongli ish bilan shug‘illanish natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Autik bola chetdan qaraganda erkalatilgan, tantiq, tarbiyasiz, injiq bola haqida tasavvur hosil qilishi mumkin, atrofdagilarning ko‘chada, transportda, do‘konda uni tushunmasliklari, tanqidlari bolaning hamda ota-onasining holatini murakkablashtiradi. Natijada, autik bolalarda “butun dunyoga qarshi chiqishga” intilish istagi uyg‘onadi, o‘rtoqlik bog‘lanishlari uziladi, jamoat joylarida bo‘lishdan qo‘rqish hissi tug‘iladi, ya’ni oilaning ikkilamchi autizatsiyasi shakllanadi.

Autizm bolalarda aloqaga kirishmaslik ko‘proq hollarda uchrab turadi. Aloqaga kirishishdan qochish turli shaklda va sabablarga ko‘ra namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zan bu bolaning xarakteri kuchsiz bo‘lsa, boshqa hollarda uning ko‘rish yoki eshitish qobiliyatining yetarlicha bo‘lmasligi, aqliy rivojlanishdan orqada qolish, nutq rivojlanishining orqada qolishi, nevrotik buzilishlar yoki og‘ir gospitalizm (bolaning ilk yoshlaridagi ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi) oqibatida kelib chiqadi.

Kommunikatsiya (aloqa) qilishning buzilishlari ko‘p hollarda asosiy yetishmovchilik, aloqa qilishga bo‘lgan ehtiyojning sustligi, ma’lumotlarni idrok etish va vaziyatni tushunishning qiyinligi, ilk yoshlarda aloqaning surunkali yetishmasligi, nutqdan foydalana olmaslik oqibati bo‘ladi. Ba’zi ma’lumotlarning ko‘rsatilishicha, autik bolalarda ko‘pgina hollarda aloqa qilishning buzilishi mutizm (so‘z va hatto jumlaning tasodifan aytilish holatlari saqlangan holdagi nutqdan aloqa qilish uchun maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanishning yo‘qligi) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Nutqning turg‘un shakllari rivojlangan paytda ham autik bolalar ularni aloqa qilishda qo‘llamaydilar.

Autik bolalar uchun exolaliya (eshitgan so‘z yoki jummalarni darrov yoki keyinchalik o‘rinsiz takrorlash), uzoq vaqtgacha shaxs olmoshlarini noto‘g‘ri qo‘llash, bolaning o‘zoni “sen”, “u” deb nomlashi, o‘zining ismini aytishi, o‘zining istaklarini shaxssiz ko‘rsatmalar bilan (men chanqadim yoki suv ichaman o‘rniga “suv berish”, qornim ochdi o‘rniga “ovqatlanish”) xosdir. Autik bola hatto anchagina yaxshi rivojlangan, nutqi boy, yoyilgan jumlati “kattalar” nutqiga ega bo‘lsa-da, uni ham shtampli, “to‘tiqushlarnikiga o‘xshash”, “fonografik” (yozib olingan) xarakterga ega bo‘ladi. Autik bolalarning o‘zi savol bermaydi va unga qaratib aytilgan murojaatga javob qilmaydi, ya’ni nutqiy o‘zaro harakatdan qochadi. Shuningdek, u imo-ishora, yuz ifodasidan foydalanmaydi. Nutqning sur’ati, ritmi, ohangi, intonatsiyasi o‘ziga xos bo‘ladi.

1943-yil Leo Kennerning “ilk yoshdagi bolalar autizmi” atamasiga binoan u kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o‘rganilmoqda. Shunga qaramay, ko‘p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilar sifatida o‘rganilgan edi. Faqatgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida o‘rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra bolalar



autizmi irsiy kasallik bo‘lib hisoblansa, boshqalarni esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta’kidlaydilar.

Autizm murakkab xulq-atvor, til va idrokdagi anomaliyalar bilan tavsiflanadi, 70% hollarda aqliy zaiflik va 30% hollarda tutilishlar, 90% dan 95% gacha ko‘rlik, karlik va uzun yo‘l belgilarining yo‘qligi autizmdan tashqari miya disfunktsiyasining har qanday sababi xulq-atvor nevrologiyasi nuqtai nazaridan, bu yulduz turkumi korteks assotsiatsiyasining umumiy disfunktsiyasini ko‘rsatadi, bunda asosiy sezgi va motor kortekslari va oq materiya saqlanib qoladi. Gipoksik ishemik shikastlanishi bo‘lgan bolalarda tez-tez uchraydigan fokal miya disfunktsiyasining klinik belgilarining yo‘qligi, masalan, ko‘rish va miya falajlari, asab tizimining taqsimlangan anomaliyasini ko‘rsatadi. Yuqoridagi xatti-harakatni nevrologik baholash 1980-yillarning boshlarida, autizمنى ikkilamchi holatlari idyopatik holatlardan ajratilganda mumkin edi. Biroq, so‘nggi 10 yil ichida bu xatti-harakatlar nevrologiyasiga mos keladigan autizm uchun neyrobiologiya paydo bo‘ldi.

Autizمنى zamonaviy neyrobiologiyasi guruhning o‘rtacha bosh atrofi aholi me'yorlariga nisbatan 60-70 foiz oraliq‘ida bo‘lganligi va bo‘y va vaznga nomutanosib ekanligini isbotlash bilan boshlandi. Autizm guruhining 15% dan 20% gacha makrosefaliya bilan kasallangan (bosh atrofi 99 %). Bo‘y uchun bosh atrofi kattaroq bo‘lsa-da, eng keng tarqalgan natija va butun autizm guruhi uchun to‘g‘ri bo‘lsa-da, bu universal emasdi. Autizmda bosh atrofi balandlikka mutanosib vabosh atrofi balandlikdan kichikroq bo‘lishi ham kuzatilgan. Shunday qilib, ko‘plab bosh o‘shishi traektoriyalari autizm bilan mos edi. Autizmi bo‘lgan juda yosh bolalarning bosh atrofi bo‘yicha ma'lumotlar retrospektiv tarzda 12 oylik 11 yoshda boshning tez o‘shishi va 4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 15% dan 20% gacha makrosefaliyaning boshlanishini aniqladi.

Ilmiy adabiyotlarda erta bolalar autizmi sindromiga olimlar tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan:

1. **Fransuz tadqiqotchisi J.M.Itarning** (1838) - “Intellektual mutizm” deb nomlanadi va bu bilan autizمنى asosiy belgilaridan biri - buzilgan intellektda nutqning rivojlanmaganligi yoki orqada qolishini ajratib ko‘rsatdi.

2. **E.Bleyler** (1912) - fanga “autizm” terminini kiritdi va unga kishining emotsional ehtiyojlari tomonidan boshqariladigan va real voqelikka bog‘liq bo‘lmagan tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida ta’rif berdi.

3. **L. Kenner** (1943) -EBA - muloqot (nutq)ning buzilishi bilan kehadigan alohida xolat bo‘lib, u “shizofrenik spektr” deb atalmish xolatlar qatoriga kiradi.

4. **I.I.Mamaychuk** - Buzilgan rivojlanish dizontogenezinining shunday turiki, unda umumiy psixik rivojlanmaganlikning murakkab birikmalari, alohida psixik funksiyalarning buzilgan va tezlashgan rivojlanishi kuzatiladi. Bu sifat jihatdan yangi patologik hosilalarni keltirib chiqaradi. Erta bolalar autizmi ushbu dizontogenez turining klinik variantlaridan biridir.

5. **O.S.Nikolskaya** - Autizm deganda, odatda keng ma’nodan keskin namoyon bo‘ladigan odamovilik, muloqotlardan qochishga intilish, o‘z olamida yashashga intilish tushiniladi.

6. **B.P.Puzanov** - Autizm (yunoncha autos - o‘zi) - odamovilik, muloqotga ehtiyojning yo‘qligi, o‘zining ichki olamini atrofdagilardan afzal ko‘rishda namoyon bo‘ladigan psixika holati.

Erta bolalar autizmining patogenetik naxanizmlari uncha aniq emas. Bu borada quyidagi taxminlar mavjud:

- Affektlik biologik mexanizmlarning buzilganligi;
- Instinktlarning birlamchi zaifligi;
- Idrokning buzilishi bilan bog‘liq axborot blokadasini;
- Ichki nutqning rivojlanmay qolganligi
- O‘zaro aloqalarga ehtiyojni bo‘g‘ib qo‘yadigan eshitish taassurotlarining markaziy buzilishlari.
- Retikulyar formatsiyaning faollashtiruvchi ta’sirlarining buzilishi.



Markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi autizm etimologiyasi bilan bog‘liq holda 50 yildan ortiqroq vaqt davomida o‘rganib kelinmoqda. Ko‘p yillik tajribadan ma‘lum bo‘lishicha, EBA (erta bolalar autizmi) tasxisi qo‘yilgan bolalar sinchiklab o‘rganilganda, ularning ko‘pchiligida markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi ma‘lum bo‘lmoqda. Biroq ularning kelib chiqishini va tasnifini aniqlash qiyin kechmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bolalikdagi autizmda buzilishlar atrof-muhit bilan aloqada past chidamlilik tufayli yuzaga keladi, bu yangilikka yo‘naltirilgan hatti-xarakatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Bolaning yaqin odamlar bilan, atrof-muhit haqidagi g‘oyalarini cheklash, stereotip va bo‘laklarga bo‘lish uning mavjud bilim va ko‘nikmalarini erkin qo‘llashiga to‘sqinlik qiladi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz autizimli bolaning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirishning o‘ta muhim ro‘li to‘g‘risida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Shaxsiyatni shakllantirishning zaruriy sharti bu– erta yoshda ta’sirchan sohani rivojlantirish va hissiy bog‘lanishni shakllantirishdir. Autizm sindromli bolalar bilan ta’sirchan hissiy sohani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish ishlari ularga normal hissiy rivojga qaytishi uchun katta imkoniyatlar beradi. Faqatgina boshqa odamlar bilan aloqada bo‘lgan umumiy tajribada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan atrof-muhit bilan faol mazmunli munosabatlarni rivojlantirish orqaligina autizmni yengib o‘tilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Minshyu NJ, Payton JB. Autizmning yangi istiqbollari, II qism: autizmning differentsial diagnostikasi va neyrobiologiyasi. Curr Probl Pediatr. 1988;18(11):613–694. doi: 10.1016/0045-9380(88)90017-5. [DOI] [PubMed] [Google Scholar]
2. L.R.Mo‘minova “Autizm sindromi. Unoing sabablari. Turlari va bartaraf etish usullari” Toshkent “Spectrum Media Group” 2015. 7-8-bet, 11- bet.
3. V.S.Raxmonova Defektalogiya asoslari Toshkent “Niso poligraf” 2017